



CHIZMACHILIK FANIDAN MAVZUGA OID DARAJALI TESTLAR TUZISH VA UNDA FOYDALANISH METODIKASI

Miraxmedova Sarvinoz Xasan qizi

Toshkent viloyati Chinoz tumani

34-sonli umumta'lim maktabining

Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi:

Annotatsiya; Mazkur maqolada chizmachilik fanini o'qitishda mavzuga oid darajali testlar tuzish va foydalanish metodikasi yoritilgan. Bu amaliy foydalanishdan pedagoglar o'z o'quvchining chizmachilik fanini o'qitishda darajali testlardan foydalanish orqali bilimlarini mustahkamlash va fanni yaxshi o'zlashtirishga imkoniyat yaratiladi.

Tayanch so'zlar: darajali test chizmachilik, test,, bilim, ko'nikma, baho. Testlarda bunday chizmalardan foydalanish o'quvchilarning o'quv fanidan egallagan nazariy bilimlarini aniqlash bilan birgalikda ularning fazoviy tasavvurlari va mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida qabul qilish to'g'risida"gi Qarori O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib testdan foydalanishga keng yo'l ochib berdi.

O'quvchi darsda qog'ozda bajarilgan chizmani o'qib, buyumning shakli va alohida elementlarini ko'z oldiga keltira olishi, ichki tuzilishini aniqlashi, shuningdek, tasvir bilan bog'liq bir qancha fazoviy masalalarni yecha oladi.

Maktab chizmachilik darslarida darajali testlardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimni mustahkamlashda turli modellar va ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda **ularning fazoviy tasavvurini va grafik savodxonligini rivojlantirish yoritilgan.**

Chizmachilik fanida qo'llanadigan testlar va ularning tahlilida zamonaviy ta'lim jarayonida testlardan muayyan fan doirasida o'zlashtirilgan bilimlar darajasini aniqlashtirish vositasi sifatida keng ko'lamda foydalanilmoqda. Unda test topshiriqlarini bajarish jarayonida o'quvchilarning fanni chuqurroq o'zlashtirishi va olgan bilimlarini takomillashtirishiga zamin yaratilishi tahlil qilingan. Testlar yordamida shaxsning fikrlash qobiliyati, zukkoligi, topqirligi, turli vaziyatlardan chiqabilishi, fazoviy tasavvur qila olishligi, ishbilarmonligi va boshqa turli qobiliyatlarini aniqlash mumkin. Bilimni tekshirishda o'quvchilarning chizmachilik mashg'ulotlaridagi bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish usullari quyidagicha bo'lishi mumkin: *ish jarayonida o'quvchilarni kuzatish; og'zaki so'rov; test orqali; grafik ishlar va uy ish daftarlarini baholash; nazorat ishlari; masalalar yechish; o'quvchilarning amaliy ishlari (modellashtirish, konstruksiyalash va hokazolar) va boshqalar.*







MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


Maktab chizmachilik darslarida darajali testlardan foydalanish orqali sifat va samaradorlikka erishish imkoniyatlari mazmunining ilmiy va amaliy jarayonida talqin etildi hamda o'quv jarayonidagi o'zni ko'rsatib berildi. Taklif etilgan metodik tavsiya va dasturlardan foydalanib o'quvchilarni chizmachilik fani o'qitishda darajali testlardan foydalanish orqali olgan bilimlarni mustahkamlashda sifat va samaradorligiga erishish mumkinligi aniqlandi ya'ni test sinovlari o'quvchilarning chizmachilikdan nazariy bilimlarini qisqa vaqt ichida baholash imkonini berishi, o'tkazishga qisqa vaqt sarflanishi va tekshirilayotgan fan bo'yicha katta hajmdagi materialni qamrab olish mumkinligi testning afzallik tomonlaridan hisoblanadi.

1. Bitta to'g'ri javobni tanlashga oid topshiriq. Bunda o'quvchi taklif qilingan variantlardan to'g'ri javobni topishi kerak bo'ladi. Bunday testlarni quyidagi shaklda tuzish mumkin:


1. Chapdan ko'rinish chizmasi to'g'ri bajarilgan variantni ko'rsating.




1



2



3



4

A) 1

B) 3

C) 2

D) 4

2. To'g'ri chiziqni aylana yoyi bilan, aylanalarning ravon o'tadigan joyi K va K_1 nuqtalarnuqtasi deyiladi.


A. Markaz nuqtasi

B. Tutashtirish markazi

C. Kesishuv nuqtasi


D. Tutashtirish nuqtasi

To'g'ri javob; To'g'ri chiziqni bilan, aylanalarning ravon o'tadigan nuqtalar **tutashtirish nuqtasi** deyiladi.



aylana yoyi
joyi K va K_1

O'quvchilarning tahlilga oid o'quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandart test topshiriqlari.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

3. *Tutashma bajarish ketma-ketligini aniqlang va mos raqamni*

<i>Tutashma bajarish bosqichlari</i>	<i>Raqamlar</i>
Tutashish markazi topiladi	3
Tutashma yasaladi	1
Tutashish nuqtasi aniqlanadi	2

<i>Tutashma bajarish bosqichlari</i>	<i>Raqamlar</i>
Tutashish markazi topiladi	1
Tutashma yasaladi	2
Tutashish nuqtasi aniqlanadi	3

juftlang.

Javob;

Maktab chizmachilik darslarida darajali testlardan foydalanish orqali sifat va samaradorlikka erishish imkoniyatlari va bilimni mustahkamlash va uni tekshirishda test savollarining o'рни va amaliy ahamiyati ma'lumot yozilgan. O'quvchilarning bilim sifatini nazorat qilishda samarali vositalardan bir sifatida test tizimlari va test texnologiyalarini rivojlantirishga, ulardan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Test tuzishda afzalligi sifatida baholashning tezkorligi, qisqa vaqt ichida mavzularni o'zlashtirish va mustahkamlash mumkinligi va baholashning obyektivligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, test topshiriqlaridan o'quvchilarning mustaqil va o'z-o'zini tekshirib borishlarida ham foydalanish mumkin. O'quvchilarga chizmachilik fanlarida fazoviy shakllar tasvirlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida o'rgatiladi. O'quvchilarni bilimini tekshirish va baholashdan maqsad o'quvchilar bilimining sifatini, rivojlantirish darajasini ta'minlash va ularni rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bilim olishga qiziqishini takomillashtirishdir.

Umumta'lim muassasalarining pedagoglari o'quv jarayondagi pedagoglar foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu amaliy foydalanishdan pedagoglar o'z o'quvchining chizmachilik fanini o'qitishda darajali testlardan foydalanish orqali bilimlarini mustahkamlash va fanni yaxshi o'zlashtirishga imkoniyat yaratiladi. O'quvchilar test savollarga javob berish orqali ham nazariy, ham amaliy bilimni hamda chizmani o'qish tafakkuri, tasavvuri tekshirildi va mustahkamlandi. . Bilimni mustahkamlash va uni tekshirishda test savollarini amaliy namunalarni ishlab chiqish va maktab chizmachilik fanidan darslarni tashkil qilishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish va darajali testlar orqali to'laqonli o'zlashtirishga o'zining ijobiy samarasini beradi. Ammo, qaysi va qanday holatdagi test turlaridan foydalanishni bilish va uni amalda qo'llay olish muhim masala hisoblanadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, hozirgi vaqtda chizmachilik darslarida darajali testlardan foydalanish orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimni mustahkamlash va rivojlantirishdagi imkoniyatlarini takomillashtirish hamda chizmachilik fanini o'qitishda o'quvchilarning chizmachilikdan tayyorgarlik darajasi va har bir bo'limlari bo'yicha bilimlarini aniqlash mumkin. O'quvchilarning bilimni test sinovlari yordamida baholashga qaror qilgan pedagog hamma talablarga javob beradigan tayyor test topshiriqlarining yetishmasligi muammosiga duch keladi. Test o'lchoy vositasi sifatida o'ziga xos topshiriqlar tizimi (ko'pchilik hollarda qiyinlik darajasi ortib boradigan) bo'lib, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini samarali aniqlash va sifatli baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot ishidan zamon talabiga javob bera oladigan darajali test ishlanmalarini tayyorlab, elektronlashtirilgan testlardan foydalanish va uslubiy tavsiyalarni o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatida qo'llab, o'z maktab o'quvchilarining chizmachilik darslarida darajali testlardan foydalanish orqali o'quvchilarni bilimni tekshirish va baholashdan tashqari o'rgatishga yo'naltirilgan test orqali berilgan savollardan javobini bilish imkoniyatini ishlab chiqib, bizning tadqiqot ishimizda chiqarilgan xulosalar, maktab o'quvchilarda nazariy va amaliy bilimni mustahkamlashda yetarli darajada shakllanganligi ularning chizmachilik fanini o'zlashtirishlarida yaxshi samara berish shu ishlardan iborat edi. Biz bunga birmuncha erishdik. Keyingi ishlarda yanada takomillashtirishga harakat qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz"- Toshkent.: "O'zbekiston", 2017 y.
2. Rahmonov I, Qirg'izboyeva N, Ashirboyev A, Valiyev A, Nigmanov B. Chizmachilik. -T.: "Voriz-nashriyot" 2016 y.
3. Rahmonov I, Yuldasheva D, Abdurahmonova M. 9-sinf chizmachilik T.: -2019 y.
4. G'ulomova N.X. Chizmachilik (chizmachilikdan testlar) (metodik qo'llanma) T.: TDPU, 2014 y.
5. . <https://new.tdpu.uz>
6. <https://www.edu.uz>

